



## INSON VA LANDSHAFTLAR O'ZARO TA'SIRINING REGIONAL JIHATLARI

Yaxshiboyev B.A

IIV Qashqadaryo akademik litseyi Umumta'lim fanlar kafedrası boshlig'i

**Annotatsiya:** ushbu maqolada insonning hayotiy va xo'jalik faoliyatida muhim ahamiyatga ega bo'lgan antropogen landshaftlar to'g'risidagi ma'lumotlarning yuzaga kelishi va rivojlanishi bayon qilingan. Shuningdek antropogen landshaftlar shakllanishining zonal-regional xususiyatlari va ularni tasniflash masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** landshaft, madaniy landshaft, tabiat, antropogen ta'sir, antropogen landshaft, antropogen landshaftshunoslik, antropogen landshaftlarning tasnifi

Hozirgi fan-texnika taraqqiyoti sharoitlarida insonning tabiatdan foydalanish jarayonida tabiatga ta'siri tobora kuchayib bormoqda. Tabiat – sayyoramizda hayotning asosiy va zaruriy sharoiti, insoniyatning yashash muhiti, barcha tabiiy resurslar hamda aholining madaniy, estetik, rekreatsiya ehtiyojlarini qondiradigan manbaidir. Shu sababli tabiatni asrab-avaylash, unga insonning salbiy ta'sirlarini kamaytirish, uning tabiiy tiklanish va tozalanish imkoniyatlarini asrash, tabiiy resurslardan oqilona hamda tejamkorlik bilan foydalanish bugungi kunda barcha mamlakatlarda, ularning katta-kichik mintaqalarida dolzarb hisoblanadi. Insonning hayotiy va ishlab chiqarish faoliyati muayyan landshaft doirasida kechadi va ular orasida uzluksiz o'zaro ta'sir sodir bo'ladi, natijada landshaft o'zining tabiiy xossalarini o'zgartiradi va yangi xususiyatlarga ega bo'ladi. Hozirgi paytda yer yuzi quruqligining 65 foizga yaqin maydonida landshaftlar o'zgartirilgan va insonning xo'jalik faoliyati ta'siri doirasida antropogen landshaftlarga aylantirilgan. Kishilik jamiyatining jadal taraqqiyoti, ishlab chiqarishning to'xtovsiz o'sishi va aholi sonining muttasil ortib borayotganligi “Landshaft-aholi” o'zaro ta'sirining tobora jiddiylashuviga olib kelmoqda. Antropogen landshaftlarning tabiiy-antropogen omillar ostida shakllanishi va rivojlanishining mintaqaviy xususiyatlarini o'rganish hamda ilmiy tadqiq qilish dolzarb hisoblanadi.

Barcha tirik mavjudotlar qatori inson hayotini ham atrof-muhitsiz, tabiatsiz tasavvur qilish qiyin. Inson organizmi ko'p jihatdan tuproq, hayvonot va boshqalar bilan bog'lik, u tabiatdagi moddaning aylanma harakati doirasidadir. Inson bevosita va bilvosita yerga, tuproqqa, suvga, havoga, o'simlik va hayvonot dunyosiga ta'sir etmoqda. Insonning tabiatga ta'siri va bu ta'sir tufayli tabiiy landshaftlar yoki ularning ayrim komponentlarining o'zgarishini o'rganish muammolari anchadan buyon mavjud (J. Marsh, V.V. Dokuchaev, A.I. Voyeykov, V.V. Alyoxin va b.). Insonning xo'jalik faoliyati jarayonida shakllangan landshaftlarni madaniy landshaftlar deb atash rusumga kirdi. “Madaniy landshaft” termini hozirgi ma'noda F.Zigrayning taxminicha birinchi bor N. Krebs tomonidan 1923- yilda ilmiy muomalaga kiritilgan.

Madaniy landshaftlarni tizimli o'rganishga, antropogen geografiya poydevorining shakllanishiga taniqli rossiyalik geograf olim Y.G.Saushkinning madaniy landshaftlarni tadqiq qilishga doir ishi asos bo'ldi, deb hisoblash mumkin. 1946-yilda chop etilgan



maqolalaridan birida Y.G.Saushkin "madaniy landshaftlarni o'rganish uchun geografiyaning alohida tarmog'i bo'lishi kerak" degan g'oyani ilgari surdi va madaniy landshaft deb "...tabiiy muhitning uzviy elementlari inson faoliyati tufayli o'zgartirilgan landshaftni tushunmoq lozimligini ta'kidlaydi.

Taniqli rus olimlari V.V.Dokuchaev va A.A.Voyeykov ham o'z asarlarida inson faoliyati natijasida tabiiy komponentlarning o'zgarishini chuqur tahlil qilib ko'rganlar. Bu masala keyinchalik ham tabiatshunos olimlarning e'tiboridan chetda qolmagan. Ayniqsa, L.S.Berg (1915, 1931), A.D.Gojev (1930), L.G.Ramenskiy (1935-1938), V.N.Gorodkov (1938) kabilarning ishlarida ushbu mavzusining faqat nazariy tomonlarigina ta'kidlab qolmasdan, balki inson bilan tabiat o'rtasidagi aloqalarning mohiyatini ochib berishga xam urinib ko'rilgan.

1970-yilda Voronej Davlat Universitetining professori F.N.Milkov "Landshaftnaya sfera Zemli" nomli kitobida "Inson tomonidan o'zgartirilgan va barpo etilgan komplekslarni o'rganish bilan antropogen landshaftshunoslik shug'ullanishi kerak" deb, ta'kidlab o'tganidan so'ng landshaftshunoslik tarkibida yangi bir ilmiy yo'nalish antropogen landshaftshunoslik shakllana boshladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, sayyoramizning deyarli barcha katta – kichik hududlarida tarqalgan hozirgi landshaftlar inson faoliyati tufayli bevosita yoki bilvosita muayyan darajada o'zgartirilgan. Shu sababli hozirgi landshaftlar asosan antropogen landshaftlarning ozmi – ko'pmi o'zgartirilgan tabiiy landshaftlar bilan bo'lgan hududiy birikmasidan iborat. Umuman olganda, Yer sharida ma'lum darajada o'zgartirilmagan tabiiy landshaftlar deyarli saqlanib qolmagan, deb hisoblash mumkin. Chunki geografik qobiqdagi modda va energiyaning uzluksiz aylanma harakati tufayli inson faoliyatining ta'siri ostida bo'lmagan Antarktida va Antarktikaning landshaft komponentlarida ham, baland tog' mintaqalarida ham namoyon bo'ladi.

Hozirgi paytda muayyan hudud tabiatidan foydalanish jarayonida vujudga kelgan antropogen landshaftlarning mavjudligini ko'pchilik olimlar e'tirof etishadi. Ammo antropogen landshaftlarning terminologik, tizimga solish va tasniflashga doir masalalar borasida hanuzgacha yakdillik yo'q. Antropogen landshaftlar o'zgarish darajasiga ko'ra turli – tuman bo'lgan hozirgi landshaftlarning muayyan bir turini tashkil etadi. Shu sababli hozirgi landshaftlarni tasniflash antropogen landshaftlarning mohiyati va xususiyatlarini ochib berish imkoniyatini beradi.

Inson tomonidan tabiatning ichki imkoniyatlarini rivojlantirish, tabiiy jarayonlarni faollashtirish, geosistemalarning samaradorligini oshirish va boshqa tadbirlar tizimini amalga oshirish maqsadida yaratilgan geosistemalarni tizimlarni V.B.Sochava "bunyodkorlik geosistemala"lari deb ataydi. V.I.Prokayev (1983) ham hududlarning tabiiy – geografik bo'linishidagi antropogen omilning ahamiyatini hisobga olish haqida so'z yuritarkan, faqat geologik-geomorfologik asosi inson tomonidan o'zgartirilgan geokomplekslarigina antropogen geokompleks deb atash mumkin deb yozadi. Uningcha, landshaftning ayrim komponentlari inson tomonidan o'zgartirilgan bo'lsayu, ammo, geolo-geomorfologik zamini o'zgarmay qolgan bo'lsa, bunday landshaft inson ta'siri to'xtatilgan



taqdirda o'zining avvalgi tabiiy holatiga qaytadi. Ularni V.A.Prokayev landshaftlarning antropogen modifikatsiyasi deb hisoblaydi.

Landshaftlarni tasnif qilishda ko'pgina tadqiqotchilar ularning o'zgarish darajasini e'tiborga oladilar. A.G.Isachenko (1991) inson faoliyatining landshaftlarga ta'siri va uning nazariy muammolari hakida fikr yuritar ekan inson tomonidan o'zgartirilgan landshaftlar tasnifi tabiiy landshaftlar tasnifiga bog'lik bulishi lozimligini uqtiradi va tabiiy landshaftlarning turli xil tasniflariga tadbiiq etish mumkin bo'lgan hamda o'zgartirilgan landshaftlarning sifat jihatidan anchagina yiriklashtirilgan birliklarini aks ettiruvchi tasnifni tavsiya etadi. Inson tomonidan yaratilgan antropogen landshaftlar tabiiy landshaftlardan ko'p jihatlari bilan farq qiladi. Antropogen landshaftlar uchun biologik aylanma harakat, suv-issiqlik balansi, tuproq jarayonlari, jonli organizmlarning soni va turlar tarkibining qayta tuzilishi xosdir. Antropogen landshaftlarning o'zgarishi tub tabiiy landshaftlarning o'z-o'zidan rivojlanishiga nisbatan ancha tezroq sodir bo'ladi. Antropogen landshaftlarning bu xususiyati ulardan foydalanish jarayonida bir tomondan noxush o'zgarishlarga jiddiy e'tibor berishni, boshqa tomondan esa qisqa vaqt davomida landshaftlarni tartibga solib turish va qayta tuzish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi.

Antropogen landshaftlar tabiiy landshaftlardan eng avvalo vujudga kelgan sharoitlariga ko'ra farq qiladi; ular insonning faol aralashuvi natijasida shakllanadi. Shu sababli antropogen landshaftni inson tomonidan yaratilgan tabiiy – xo'jalik kompleksi sifatida qarash lozim. Darhaqiqat, antropogen va tabiiy landshaftlar orasida ularning vujudga kelishi va rivojlanishi tabiiy omillar bilan bir qatorda insonning faoliyati (antropogen omil) turadi. Demak, har qanday antropogen landshaft – tabiiy landshaftlarning ham tabiiy omillar, ham antropogen omillar ta'siri ostida o'zgarishining (dinamikasining) mahsulasi. Ularning rivojlanishi inson o'zining ishlab chiqarish maqsadlarida foydalanadigan tabiiy qonuniyatlarga bo'ysunadi. Antropogen landshaftlarda tabiiy jarayonlarning yo'nalishi va tezligi maqsadli ravishda o'zgartiriladi. A.M.Ryabchikov (1972) ta'kidlaganidek, har qanday o'zgargan, o'zgartirilgan va hatto sun'iy landshaft ham tabiiy landshaft asosida va uning chegaralarida vujudga keltiriladi. Antropogen omillar ta'sirida o'zgarish jarayonida landshaftda yangi tuzilma va yangi sifat hosil bo'ladi. Ular inson tomonidan doimo quvvatlanib turganligi sababli vujudga kelgan landshaftlar tub tabiiy landshaftlarga nisbatan ancha tez rivojlanadi. Chunki, yuqorida aytilganidek, antropogen landshaftlar ham tabiiy, ham antropogen omillarning birgalikdagi ta'siri ostida rivojlanadi. Ammo shunga qaramasdan antropogen landshaft tub tabiiy landshaft kabi o'zining genetik (vujudga kelishiga ko'ra) bir xilligini ham zonal, ham nozonal jihatdan saqlab qoladi va qaysi zona (yoki balandlik mintaqasi)da vujudga kelgan bo'lsa, shu zonaning tabaqalashuv qonuniyatlariga bo'ysunadi.

Tabiiy sharoit va antropogen landshaftlar orasida muayyan bog'lanish mavjud: muayyan landshaftning rivojlanish imkoniyatlari tabiatning xususiyatlari orqali qat'iy "nazorat" qilinadi. Faqat tabiiy resurslar ma'lum turlarining yoki qulay tabiiy sharoitning mavjudligi tabiatdan foydalanishning muayyan bir turi uchun o'ziga xos landshaftlarni shakllanishiga olib keladi, ya'ni tabiiy landshaftning dastlabki tuzilmasiga inson tomonidan kiritiladigan o'zgarishlarning umumiy yo'nalishi tabiatning o'zi tomonidan belgilab



qo'yiladi. Bir xil tabiiy sharoitlarda vujudga kelgan antropogen landshaftlar mintaqalar, kontinentlar va mamlakatlar bo'yicha sezilarli holda tabaqalashadi. Bunda sotsial – iqtisodiy sharoitlar va tarixiy omil muhim ahamiyatga ega. Binobarin, landshaftning resurslik xususiyati ishlab chiqarish kompleksining vujudga kelishi uchun sharoit yaratishini doimo yodda tutish lozim.